UDK 37.02:37.018.4

“AQLIY HUJUM” METODINING TA’LIM JARAYONIDAGI PEDAGOGIK IMKONIYATLARI VA SAMARALI QO‘LLASH MEXANIZMLARI

Aytbayev D.T.,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti professori

Bugungi kunda ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri bilimlarni tayyor holda yetkazish bilan bir qatorda, ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlashi, o‘z nuqtayi nazarini erkin ifodalashi, muammoli vaziyatlarga yechim topishi va ijodiy faoliyat yuritishi uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Shu jihatdan ta’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish muhim metodik vositalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Interfaol metodlar ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi, shuningdek, ta’lim oluvchilarning o‘zaro faol hamkorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Bunday metodlar orqali ta’lim oluvchi dars jarayonining passiv ishtirokchisidan faol subyektiga aylanadi. U o‘z fikrini ilgari surish, uni asoslash, boshqa fikrlarni tinglash va baholash, umumiy xulosaga kelish jarayonida bevosita ishtirok etadi.

Ana shunday interfaol metodlardan biri “Aqliy hujum” metodidir. Mazkur metod qisqa vaqt ichida ko‘plab fikr va g‘oyalarni yuzaga chiqarish, ta’lim oluvchilarning mavzu bo‘yicha mavjud bilimlarini aniqlash hamda ularni yangi bilimlarni o‘zlashtirishga tayyorlash imkonini beradi.

“Aqliy hujum” metodining mazmun-mohiyati haqida fikr yuritadigan bo‘lsak: “Aqliy hujum” metodi ta’lim jarayonida muayyan muammo yoki savol yuzasidan ta’lim oluvchilarning imkon qadar ko‘proq fikr va g‘oyalarini shakllantirishga asoslanadi. Metodning asosiy xususiyati shundan iboratki, fikrlarni bildirishning dastlabki bosqichida ular tanqid qilinmaydi, muhokama etilmaydi va baholanmaydi.

Bunday yondashuv ta’lim oluvchiga o‘z fikrini erkin ifodalash imkonini beradi. Ayniqsa, noto‘g‘ri javob berishdan qo‘rqadigan yoki o‘z fikrini ochiq bayon qilishga qiynaladigan ta’lim oluvchilar uchun mazkur metod psixologik jihatdan qulay muhit yaratadi.

“Aqliy hujum” jarayonida asosiy e’tibor fikrlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘-riligiga emas, balki ularning imkon qadar ko‘p va xilma-xil bo‘lishiga qaratiladi. Keyingi bosqichda bildirilgan fikrlar tahlil qilinib, ular orasidan mavzuga mos, asoslangan va maqbul javoblar ajratib olinadi.

Metodni qo‘llashning pedagogik imkoniyatlari: “Aqliy hujum” metodidan darsning turli bosqichlarida foydalanish mumkin. Uni qo‘llashdan ko‘zlangan pedagogik maqsadga qarab metodning o‘rni va mazmuni o‘zgaradi.

Birinchidan, ta’lim oluvchilarning boshlang‘ich bilimlarini aniqlash maqsa-dida “Aqliy hujum” darsning kirish qismida qo‘llanadi. Bunda yangi mavzu bilan bog‘liq savol berilib, ta’lim oluvchilarning mavjud bilimlari aniqlanadi.

Ikkinchidan, avvalgi mavzuni takrorlash yoki uni yangi mavzu bilan bog‘lash maqsadida metoddan yangi mavzuga o‘tish bosqichida foydalanish mumkin. Bu usul o‘zlashtirilgan bilimlarni faollashtirish va yangi mavzuni qabul qilish uchun zarur intellektual tayyorgarlikni shakllantirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, o‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida “Aqliy hujum” darsning yakuniy yoki mustahkamlash bosqichida tashkil etiladi. Bunda ta’lim oluvchilar o‘zlashtirilgan bilimlarni qisqa vaqt ichida qayta faollashtirib, asosiy tushunchalarni umumlashtiradilar.

Shunday qilib, metoddan foydalanish maqsadi faqat savol-javob o‘tkazish-dan iborat bo‘lmay, balki ta’lim oluvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, ularni fikrlashga undash va mavzu yuzasidan mustaqil xulosa chiqarishga yo‘nal-tirishni nazarda tutadi.

Metodning samaradorligi uni tashkil etish qoidalariga rioya qilinishiga bevosita bog‘liq. Eng avvalo, bildirilayotgan fikrlarni dastlabki bosqichda tanqid qilmaslik muhimdir. Chunki fikrni darhol baholash ta’lim oluvchilarning erkin fikr bildirishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Metoddan foydalanishda quyidagi asosiy qoidalarga amal qilish maqsadga muvofiq: bildirilgan fikr va g‘oyalar dastlabki bosqichda muhokama qilinmaydi va baholanmaydi; har qanday fikr, hatto u noto‘g‘ri yoki mavzuga to‘liq mos bo‘lmasa ham, qayd etiladi; har bir ta’lim oluvchining jarayonda faol ishtirok etishiga imkon yaratiladi; bildirilgan fikrlar ko‘rinadigan shaklda qayd etib boriladi; fikrlar umumlashtirilgach, ular belgilangan mezonlar asosida tahlil qilinadi hamda yakuniy bosqichda savol yoki muammo yuzasidan asoslangan xulosa shakllantiriladi.

Mazkur qoidalar metodning asosiy maqsadi – erkin, faol va ijodiy fikrlash muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Metodni samarali tashkil etish muayyan ketma-ketlikni talab qiladi. Birinchi bosqichda ta’lim beruvchi mavzu yoki muammo yuzasidan aniq va tushunarli savolni shakllantiradi. Savol ta’lim oluvchilarni fikrlashga undashi va bir nechta javob variantlarini yuzaga keltirishi lozim.

Ikkinchi bosqichda ta’lim oluvchilar savol yuzasidan o‘z fikr-mulohaza va g‘oyalarini bildiradilar. Bu jarayonda erkin fikrlashga imkon berilishi va javoblar tanqid qilinmasligi kerak.

Uchinchi bosqichda bildirilgan barcha fikrlar doska, elektron taqdimot, rangli qog‘ozlar yoki boshqa vizual vositalar yordamida qayd etiladi. Fikrlarning ko‘rgazmali tarzda ifodalanishi ta’lim oluvchilarga ularni yaxlit holda ko‘rish va keyinchalik tahlil qilish imkonini beradi.

To‘rtinchi bosqichda bildirilgan fikrlar mazmuni, o‘xshashligi yoki boshqa belgilari asosida guruhlanadi. Bu bosqichda fikrlar o‘rtasidagi bog‘liqlik aniq-lanadi.

Beshinchi bosqichda dastlab qo‘yilgan savolga eng maqbul va asoslangan javob tanlab olinadi. Zarur hollarda ta’lim beruvchi umumlashtiruvchi xulosa chiqaradi va bildirilgan fikrlarni ilmiy-nazariy jihatdan to‘ldiradi.

“Aqliy hujum” metodining muhim pedagogik imkoniyatlaridan biri ta’lim oluvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshirishdir. Metoddan foydalanilganda ta’lim oluvchi tayyor javobni kutib o‘tirmaydi, balki muammo yuzasidan mustaqil fikrlashga harakat qiladi. Shuningdek, metod ta’lim oluvchilarning mavjud bilimlarini aniqlashga imkon beradi. Ta’lim beruvchi bildirilgan fikrlar orqali guruhning mavzu bo‘yicha tayyorgarlik darajasini aniqlashi va keyingi ta’lim jarayonini shunga mos ravishda tashkil etishi mumkin.

Metodning yana bir muhim jihati – ta’lim oluvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg‘otishidir. Muammo yoki savolning ochiq tarzda qo‘yilishi ularda javob izlash ehtiyojini yuzaga keltiradi. Natijada ta’lim jarayoni oddiy axborot uzatishdan faol bilish faoliyatiga aylanadi. Shuningdek, “Aqliy hujum” kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish uchun ham qulay imkoniyat yaratadi. Ta’lim oluvchi o‘z fikrini qisqa va aniq ifodalash, boshqalarning fikrlarini tinglash, turli qarashlarni qiyoslash va umumiy xulosaga kelish ko‘nikmalarini egallaydi.

“Aqliy hujum” metodining afzalliklari, avvalo, uning sodda va qulay tashkil etilishi bilan belgilanadi. Metoddan foydalanish uchun murakkab texnik vositalar talab etilmaydi. Eng muhimi, ta’lim beruvchi tomonidan aniq muammo yoki savol qo‘yilishi va ta’lim oluvchilarga erkin fikr bildirish imkoniyatining yaratilishidir.

Metodning asosiy afzalliklarini quyidagicha umumlashtirish mumkin: ta’lim oluvchilarning barchasini faol ishtirok etishga undaydi; mustaqil va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi; turli fikr va g‘oyalarni tezkor shakllantirish imkonini beradi; bosh-lang‘ich bilimlarni aniqlashga yordam beradi; ta’lim oluvchilarning mavzuga qiziqishini oshiradi; fikrlarni vizual tarzda umumlashtirish imkonini beradi va ham-korlik va kommunikativ faoliyatni rivojlantiradi.

Shu bilan birga, metodni qo‘llashda ayrim qiyinchiliklar ham uchrashi mumkin. Xususan, ta’lim beruvchining muammoni yoki savolni noto‘g‘ri shakl-lantirishi kutilgan natijaga erishishga to‘sqinlik qiladi. Savol juda tor yoki mavhum bo‘lsa, ta’lim oluvchilarning fikrlari ham cheklangan bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, metod ta’lim beruvchidan faol tinglash, barcha fikrlarni xolis qayd etish va keyingi bosqichda ularni to‘g‘ri tahlil qilish ko‘nikmasini talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, “Aqliy hujum” metodi zamonaviy ta’lim jarayonida ta’lim oluvchilarning bilish faolligi va mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali interfaol metodlardan biridir. Uning asosiy pedagogik qiymati ta’lim oluvchilarga o‘z fikrlarini erkin ifodalash, turli g‘oyalarni ilgari surish va ularni hamkorlikda tahlil qilish imkoniyatini yaratish bilan belgilanadi.

Metodni darsning kirish, yangi mavzuga o‘tish va mustahkamlash bosqich-larida maqsadga muvofiq qo‘llash mumkin. Bunda metodning samara-dorligi, avvalo,

savolning to‘g‘ri qo‘yilishi, fikrlarning dastlabki bosqichda baholanmasligi va barcha ta’lim oluvchilarning jarayonga jalb etilishi bilan bog‘liq.

“Aqliy hujum”dan oqilona foydalanish natijasida ta’lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, muloqotga kirishish, o‘z fikrini asoslash va jamoaviy qaror qabul qilish kabi kompetensiyalar shakllanadi. Shu sababli mazkur metodni interfaol ta’lim texnologiyalarining tarkibiy qismi sifatida tizimli va maqsadli qo‘llash ta’lim samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Osborn A.F. Applied Imagination: Principles and Procedures of Creative Problem-Solving. – New York: Charles Scribner’s Sons, 1963.
2. Osborn A.F. Your Creative Power: How to Make the Most of Your Imagination. – New York: Charles Scribner’s Sons, 1948.
3. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.
4. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2008.
5. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003.
6. Farberman B.L. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2000.
7. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
8. Mavlonova R., To‘rayeva O., Holiqberdiyev K. Pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008.
9. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – Toshkent, 2015.